

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA TA’LIM VA KASBIY RIVOJLANISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI: INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHDA YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR

Yeleusinova Janat Turar qizi

*Qoraqalpoq davlat universiteti, “Menejment” ta’lim yo’nalishi talabasi,
janateleusinova11@mail.ru*

*Ilmiy rahbar: **Dawletmuratov Adilbay Mirzabaevich** PhD, dotsent
QQDU “Menejment va iqtisodiyot asoslari” kafedrasi dotsenti,
dadil1509@mail.ru*

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta’lim va kasbiy rivojlanish tizimini takomillashtirish orqali inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Mintaqadagi mavjud muammolar tahlil qilingan holda, ta’lim dasturlarini mehnat bozoriga moslashtirish, kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish, raqamli ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish, o‘qituvchilar salohiyatini oshirish va xorijiy tajribalarni moslashtirish kabi ustuvor yo‘nalishlar asosida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida mintaqaviy ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish va innovatsion yondashuvlar tatbiqi orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: Inson kapitali, ta’lim islohoti, kasbiy rivojlanish, Qoraqalpog‘iston, mehnat bozori, raqamli ta’lim, davlat-xususiy sheriklik, innovatsion yondashuv.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim va kasbiy tayyorgarlik tizimi iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion rivojlanish va raqobatbardosh inson kapitali shakllanishining asosiy poydevoridir. Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlari, yoshlar sonining ortishi va raqobatbardosh ishchi kuchiga ehtiyojning kuchayishi ta’lim va kasbiy rivojlanishni yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta’lim va kasbiy rivojlanish tizimi dolzarb muammolardan biri bo‘lib, u mintaqaning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mavjud ta’lim muassasalarining zamonaviy talablarga moslashuvi, ishchi kuchi bozorining ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirilgan kasbiy o‘quv dasturlari, raqamli texnologiyalarni joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini oshirish kabi omillar tizimni takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy ilg‘or tajribalarni moslashtirib, Qoraqalpog‘istonda innovatsion, amaliy va natijador ta’lim tizimini shakllantirish zarur.

Korxonada inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish tizimini yaratish kerak bo‘lgan tamoyillar tizimisiz amalga oshirishi mumkin emas. Inson kapitalini

shakllantirish va rivojlantirish tamoyillar tizimi o‘zaro bog‘liq elementlarning to‘plamidan iborat bo‘lib, ularni qo‘llanish korxona uchun yanada samarali bo‘lgan inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish tizimini yaratishga imkon beradi. Ushbu tizimning tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- korxonaning asosiy maqsadiga erishish. Bu tamoyil mohiyati shundan iborat, inson kapitalining shakllanish va rivojlanish jarayoni korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan yaqindan bog‘liq bo‘lishi shart;
- ilmiylik va dolzarblik. Inson kapitalining shakllanishi va rivojlanishi zamonaviy ilm-fan yutuqlariga asoslangan bo‘lishi va dolzarb talablarga javob berishi kerak;
- amalga oshirish qo‘layligi. Ushbu tamoyil barcha darajadagi ierarxik boshqaruv tizimlarining muvaffaqiyatlaridan foydalanish va ularni joriy etishga asoslangan;
- tejamkorlik. Tizimni qurishning barcha jarayonlari minimal xarajatlar bilan amalga oshirilishi kerak;
- uzluksizlik. Tizim va uning barcha jarayonlari doimiy ishlashi kerak;
- istiqbollik. Tizimni amalga oshirishda uning korxonaning kelajakdagi rivojlanishidagi rolini hisobga olish kerak;
- murakkablik. Tizimning barcha elementlari o‘zaro ta’sir qilishi va umumiy maqsadga itilishi kerak;
- individuallik. Tizim korxonaning inson kapitalining barcha elementlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan, lekin unda har bir kapital tashuvchisining o‘ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarining rivojlanganligi hisobga olinishi kerak.

Shunday qilib, amalga oshirilgan tahlil korxonada inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish tizimini joriy etish va amalga oshirish bir qator tamoyillar va shartlarga rioya qilishni talab qiladigan murakkab jarayon ekanligi to‘g‘risida xulosa chiqarishimizga imkon beradi. Shu bilan birga, bu tizim innovatsion-faol korxonada ma’lum xususiyatlariga ega bo‘ladi. Ularga korxonada inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga, xususan xodimlarning innovatsion qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun qo‘shimcha investitsiyalar kiritish kiradi. Ya’ni innovatsion-faol korxona barcha mumkin bo‘lgan vositalardan foydalangan holda inson kapitalini to‘laqonli shakllantirish va rivojlantirishga intiladi, lekin ushbu choralar qanchalik asosli va ularning samarasini qanday baholash mumkin ekanligini ko‘rish uchun inson kapitalini baholash modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta’lim va kasbiy rivojlanishni takomillashtirish yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

1. Ta’lim dasturlarini mehnat bozoriga moslashtirish

Bugungi kunda ta’lim tizimi va mehnat bozori o‘rtasidagi uzviy aloqaning zaifligi - ishsizlikning ortishi, malakasiz kadrlar sonining ko‘payishi va iqtisodiy resurslarning samarasiz sarflanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida iqtisodiy tarmoqlar (qishloq xo‘jaligi, kichik sanoat, xizmat ko‘rsatish)ning o‘sib

borayotgan ehtiyojlari ta'lim dasturlarining qayta ko'rib chiqilishini talab qilmoqda. Ta'lim dasturlarini mehnat bozoriga moslashtirish - bu yagona yo'nalish emas, balki ta'lim tizimini zamon va hudud talablariga uyg'unlashtirishga qaratilgan kompleks islohotlar tizimidir. Qoraqalpog'iston sharoitida bu yo'nalishdagi ishlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki yoshlarning bandligini ta'minlash, migratsiyani kamaytirish va mahalliy kadrlar salohiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi:

- **Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida soha va hudud ehtiyojlariga mos ta'lim yo'nalishlarini ochish.** Ta'lim yo'nalishlari respublika miqyosida umumiy standartlarga mos bo'lib, mintaqaviy xususiyatlar hisobga olinmagan. Ko'plab yo'nalishlar faqat nazariy bilimga asoslangan, amaliy ko'nikmalar yetishmaydi. Yangi sanoat tarmoqlari uchun kadrlar yetishtirilmayapti (masalan: IT, agrotexnologiya, ekologik muhandislik). Bunda Qoraqalpog'iston bo'yicha yillik asosda sektorlar kesimida (qishloq xo'jaligi, turizm, xizmat ko'rsatish, qurilish) malakali ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj tahlil qilinishi kerak. Shu tahlil asosida oliy va o'rta maxsus ta'lim dasturlarining mazmuni va yo'nalishlari qayta ko'rib chiqilishi lozim. Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy xususiyatlariga ega bo'lgan mintaqaga bo'lib, bu yerda: qishloq xo'jaligi (xususan, cho'l zonasi dehqonchiligi), suv resurslarini boshqarish, turizm (xususan, ekologik va madaniy), tikuvchilik va hunarmandchilik, qayta tiklanuvchi energetika sohalar bo'yicha katta salohiyat mavjud. Shunga qaramay, oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ushbu sohalarga mos yo'nalishlar yetarli emas yoki mavjud bo'lsa ham, ularning zamonaviy ehtiyojlarga mos darajadagi sifati yetarli emas. Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasida oliy a'lim bo'yicha zamonaviy yo'nalishlarni ochish taklif etiladi (1-jadvalga qarang).

- **Ish beruvchilar bilan hamkorlikda amaliyot dasturlarini kengaytirish.** Qoraqalpog'istonda iqtisodiyotning diversifikatsiyasi bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, ammo yangi sanoat tarmoqlari - IT, agrotexnologiya, ekologik muhandislik sohalariga mos malakali mutaxassislar yetarli emas. Shularni hisobga olib "Dual ta'lim" modelini joriy etish – bunda talaba o'quv haftasining bir qismini darsda, ikkinchi qismini esa korxonada amaliyot shaklida o'tkazadi, ta'lim muassasasi va korxona o'rtasida rasmiy hamkorlik memorandumi tuziladi. Bu model ayniqsa qishloq xo'jaligi, avtomatika, IT, turizm xizmatlari sohalarida samarali. Bu tajriba ayniqsa Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida – kam bandlik, malakasiz mehnat kuchi va iqtisodiy qiyinchiliklar mavjud bo'lgan hududlar uchun juda muhimdir.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida taklif etilayotgan oliy ta'lim
yo'nalishlari¹**

Soha	Tavsiya etilgan yo'nalish
Qishloq xo'jaligi	Cho'l zonasi agrotexnologiyasi, irrigatsiya injiniringi
Suv resurslari	Suvni boshqarish va monitoring texnologiyalari
Turizm	Ekoturizm va madaniy turizm menejmenti
Atrof-muhit muhofazasi	Iqlim o'zgarishi va ekologik muhandislik
Energetika	Quyosh va shamol energiyasi muhandisligi
Axborot texnologiyalari	Masofaviy xizmatlar IT-ixtisosligi (telemeditsina, agri-tech dasturchisi)

2. Kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish. Kasbiy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish – bu nafaqat ta'lim islohoti, balki mintaqaning iqtisodiy barqarorligi, bandlikni ta'minlash va ijtimoiy tenglikni kuchaytirish vositasidir. Bu islohotlar Qoraqalpog'iston Respublikasining har bir hududida ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

- Texnikum va kasb-hunar maktablarini zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta'minlash.

- Dual (ikki tomonlama) ta'lim tizimini (ya'ni o'qish + ishlab chiqarish) joriy etish.

- Mahalliy sanoat korxonalari bilan kasbiy o'qituvchilarning bevosita hamkorligini yo'lga qo'yish.

3. Raqamli va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish. Raqamli va masofaviy ta'lim – bu faqat texnologik imkoniyat emas, balki hududiy tenglik, ta'limning inklyuzivligi, va bilimga doimiy ochiqlikni ta'minlovchi strategik yo'nalishdir. Qoraqalpog'iston Respublikasida bu yo'nalishda aniq siyosiy irodani shakllantirish zarur. Bunda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim.

- Raqamli ta'lim platformalari (Moodle, Coursera, EdX, Ziyonet) orqali o'qitishni rivojlantirish.

- Qishloq joylarda internet infratuzilmasini yaxshilash.

- Onlayn malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

4. O'qituvchilar salohiyatini oshirish. O'qituvchi – ta'lim tizimining yuragi. Agar o'qituvchining salohiyati kuchli bo'lsa, har qanday islohot muvaffaqiyatli bo'ladi. Shuning uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida o'qituvchilar salohiyatini oshirishga ustuvor ahamiyat berish zarur. O'qituvchilar salohiyatini oshirish quyidagi

¹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

yo‘nalishlarda amalga oshirish mumkin:

Zamonaviy malaka oshirish tizimini shakllantirish

- Har bir o‘qituvchi uchun shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish.
- Mahalliy va xorijiy trenerlar ishtirokida: innovatsion metodikalar, STEAM-ta’lim, raqamli texnologiyalar bo‘yicha modulli treninglar.

- Online kurslar va vebinarlar orqali doimiy rivojlanish.

Raqamli savodxonlik va texnologik ko‘nikmalarni oshirish

- Har bir o‘qituvchi uchun ICT sertifikat (Information and Communication Technology sertifikat) - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bilish va ulardan samarali foydalanish ko‘nikmasini tasdiqlovchi hujjat bo‘lib, ayniqsa ta’lim tizimidagi o‘qituvchilar uchun zamonaviy kasbiy tayyorgarlikning muhim elementidir) talab qilish.

- Darslarda interaktiv vositalardan foydalanishni o‘rgatish (quizlet, kahoot, jamboard, chatGPT, Wordwall).

Kasbiy faoliyatda tahliliy va ijodiy yondashuvni rivojlantirish

- O‘qituvchilarni o‘z faniga oid: ilmiy maqola yozish, loyiha tuzish, didaktik materiallar yaratishga yo‘naltirish.

- Pedagogik innovatsiyalar tanlovlari, grantlar, konferensiyalar.

Mentorlik va tajriba almashinuvi tizimini yo‘lga qo‘yish. Mentorlik – bu tajribali o‘qituvchining (mentor) yangi yoki kam tajribali o‘qituvchiga (menti) kasbiy rivojlanish, metodik yondashuvlar, dars sifati va shaxsiy o‘sishda ko‘mak berish tizimidir. Ushbu tizimni Qoraqalpog‘iston Respublikasi ta’lim sohasida rivojlantirish uchun quyidagi alohida e‘tibor qaratish kerak:

- Yangi o‘qituvchilar uchun tajribali ustozlar bilan ishlash tizimi joriy etish;
- Tuman va respublika miqyosida pedagogik ustaxonalar, metodik platformalar tashkil etish.

5. Xorijiy tajribani o‘rganish va tatbiq qilish. Bu hozirgi globallashuv davrida har bir soha rivoji uchun nihoyatda dolzarb masalalardan biridir. Zamonaviy taraqqiyot yo‘lida bo‘lgan har qanday davlat uchun xorijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ularni o‘z sharoitlariga mos tarzda tatbiq qilish muhim strategik vositadir. Bunda nafaqat texnologik yoki boshqaruv tajribalari, balki institutsional, huquqiy, ta’lim va madaniy tajribalarning ham o‘rni beqiyosdir. Xorijiy tajribani o‘rganish va tatbiq etish bir martalik harakat emas, balki uzluksiz va strategik jarayondir. Bu jarayonda muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagilar muhimdir:

- Har bir tajribaning kelib chiqqan kontekstini to‘g‘ri anglash;
- Mahalliy sharoitlarni chuqur tahlil qilish;
- Ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida moslashtirish strategiyasini ishlab chiqish;
- Innovatsion g‘oyalarga ochiqlik.

6. Ragʻbatlantirish va ijtimoiy maqomni koʻtarish. Ragʻbatlantirishning izchil va tizimli amalga oshirilishi - jamiyatning asosiy tayanichi boʻlgan kasb egalarining obroʻsini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu boisdan quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- Eng yaxshi oʻqituvchi mukofotlari (pul mukofoti, safarlar, sertifikatlar).
- Faol oʻqituvchilar uchun ijtimoiy imtiyozlar (uy-joy, kredit, dam olish yoʻllanmalari).
- Jurnal va saytlar orqali pedagoglar faoliyatini targʻib qilish.
- Har yili muntazam ravishda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini oʻtkazish.
- Ustoz-mentorlik dasturlarini rivojlantirish.
- Innovatsion oʻqitish metodikalarini joriy etish (STEAM, CLIL, loyiha asosidagi taʼlim).

7. Davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish. Davlat-xususiy sheriklik – bu nafaqat moliyaviy manfaatlarni, balki ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi zamonaviy boshqaruv modelidir. Uni kengaytirish uchun:

- Xususiy taʼlim muassasalariga imtiyozlar berish (soliq yengilliklari, subsidiyalar).
- Ish beruvchilarni taʼlim jarayoniga jalb qilish: stipendiya, amaliyot, tajriba almashinuvi.
- Innovatsion kasbiy markazlar va karyera markazlarini yaratish.

8. Xorijiy tajribalarni lokalizatsiya qilish. Bu murakkab, ammo zaruriy jarayondir. Bunda quyidagilar muhimdir

- Janubiy Koreya, Germaniya, Finlandiya kabi davlatlar tajribasidan foydalanish.
- Talabalar va oʻqituvchilar almashinuvi dasturlarini rivojlantirish (Erasmus+, Bolonya jarayoni).
- Xalqaro sertifikatlarni beruvchi oʻquv kurslarini ochish (IT, menejment, til oʻrganish).

Xulosa va takliflar

Qoraqalpogʻiston Respublikasida raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish uchun quyidagi takliflar muhim ahamiyatga ega:

- Hududiy ixtisoslashuvga mos taʼlim dasturlarini ishlab chiqish;
- Kasbiy taʼlimni zamonaviy texnika va metodika bilan boyitish;
- Mahalliy va xorijiy investorlarni taʼlim infratuzilmasiga jalb qilish;
- Oʻqituvchilarni malaka va salohiyat jihatdan kuchaytirish;
- Raqamli savodxonlikni taʼlim tizimi boʻyicha ustuvor yoʻnalishga aylantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, 2014.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni - “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, 52-maqsad. www.lex.uz
3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. <https://lex.uz/ru/docs/-6257288?ONDATE=14.02.2025>
5. Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/-5073447>
6. Qoraqalpog‘iston Respublikasini 2020–2023-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturi. <https://lex.uz/docs/-5100705>
7. Худякова Е.Г. Оценка человеческого капитала и эффективности его использования в интересах инновационного развития предприятия. – Дисс. к.э.н. – Уфа, 2019. – С. 61.